



## ISLOM – BAG'RIKENGLIK TIMSOLI

E'tiqod mustahkamligi inson uchun ulug'vor qadriyat hisoblanadi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida talaba-yoshlar bilan "O'zbekiston – millatlararo totuvlik va bag'rikenglik yurti" mavzusi ostida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI\dsmi.uz

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi o'qituvchisi Zebo Qosimova, "O'zbekiston – islom sivilizatsiyasi markazi" direktor o'rinbosari Shoazim Minovarov, institut Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Sayfulla Ikromov ishtirok etishib, talaba-yoshlar bilan din psixologiyasi, millatlararo totuvlik borasida amalga oshirilayotgan ishlar, mamlakatimizda islom falsafasini o'rganish, dinni kelajak avlodga to'g'ri va chin talqinda yetkazish tamoyillari, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, "O'zbekiston – islom sivilizatsiyasi markazi" faoliyati borasida qizg'in suhbat bo'lib o'tdi.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI\dsmi.uz

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-  
ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-  
tadbirlari to'g'risida”gi farmoni yuzasidan ham ma'lumotlar  
keltirildi.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI\dsmi.uz

Mazkur davra suhbatlari va ma'rifiy uchrashuvlar talaba-yoshlar ongida diniy-ma'rifiy tarbiyaning va turli yot g'oyalarga qarshi immunitetning shakllanishiga olib keladi. Davra suhbatlari davomida talaba-yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan mutaxassislariga murojaat etishdi va kerakli bilimlarga ega bo'lishdi.

**Dostonbek RAHMATULLAYEV**  
**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat**  
**instituti matbuot kotibi**